

DEHQONCHILIKKA OID MAQOLLARNING SEMANTIK TADQIQI**A.Amini****TerDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi****Tel: +998991757440****Email: azizamini126@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.8317656>**

Annotasiya: Mazkur maqolada dehqonchilikka oid maqollar va uning semantik tadqiqi, o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan fikr mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Maqol, Yer, Dehqonchilik, Xalq og'zaki ijodi, Bog', Dehqon tushunchalarini ifodalovchi birliklar.

Insoniyat yaralibdiki, o'zining kundalik moddiy ehtiyojlarini topishga, o'zi uchun yaxshi hayot tarzini yaratishga harakat qiladi. Buning uchun kerak bo'lsa tabiat bilan kurashadi, uni o'zgartirishga urinadi. Tarixga nazar tashlasak, insoniyatning ilk ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishi dehqonchilik va chorvachilikka bog'liqdir. Dehqonchilik nima o'zi? U qanday madaniyat edi? Dehqonchilik madaniyati iborasi asli "yerga ishlov bermok" degan ma'noni anglatib, keyinchalik boshqa sohalarga o'tgan va umumiy tarzda madaniyat (ishlov berish) yaratish so'ziga aylangan. Yerga ishlov berish va o'simliklarni parvarish qilish madaniyati tufayli inson tabiatning farzandi sifatida uning bunyodkorlik qobiliyatini munosib ravishda davom ettirib kelmoqda.

Dunyoda maqollari mavjud bo'lmagan birorta ham til bo'lmasa kerak. Maqollar haqida berilgan ta'rifda ham shu xususiyatni ko'rish mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'atida" maqol quyidagicha ta'riflanadi: "hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham [obrazli va hikmatli ibora](#), gap". O'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan, iboralar, matallar, hikmatlar va maqollar ham asrlar davomida xalq bilan birga yashaydi. Ayniqsa, o'zbek xalq maqollarida uchraydigan insoniylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'ri va egrilik, yaxshilik va yomonlik, adolat, insof va insofsizlik, do'stlik va dushmanlik, botirlik va qo'rqqoqlik, ilmlilik va ilmsizlik, hushyorlik va ehtiyotsizlik kabi g'oyalar nafaqat o'tmish avlodlarimizni, balki kelajak avlod yoshlarimizni tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq maqollarida g'oyalar o'ziga xos tarzda o'z aksini topgan bo'lib, ular o'rtasidagi dialektik munosabatdan kelib chiqib yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga doimiy e'tibor qaratilgan. Shuningdek, matallar va hikmatli so'zlarda ham kelajak avlodni ilmlilik va birlikka, odob va axloqqa, ta'lim va tarbiyaga, xayrli ishlar qilishga undovchi da'vatlar o'z aksini topgan. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi maqollarini misol keltirishimiz mumkin.

Dehqon qorga tez, cho'pon go'rga.

Qor yog'ganidan keyin yer yumshoq bo'lib, namlik yer ostiga borib urug' sepish uchun qulay fursat yaratiladi, chunki urug'ning ulg'ayib chiqishi uchun, namlik kerak, dehqonlar ham shu fursatdan foydalanib, yog'in yog'ib, yer yumshaganidan keyin urug' sepishni boshlaydilar. Cho'pon uchun esa dam olish kun desak ham mubolag'a bo'lmaydi, chunki qish kirib kelishi bilan, daladagi mol xashaklari tugaydi. Cho'pon mollarni o'z egalari topshirishda. "Dehqon qorga tez, cho'pon go'rga" maqoli hozirgi kunda Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatiladi.

Dehqonning xazinası — yer.

Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqida eng ko'p uchraydigan maqoldir. Dehqon o'zining barcha moddiy ehtiyojlarini yerdan oladigan dehqonchilik mahsulotlari orqali bartaraf etadilar, shu sababli, mazkur maqol qo'llaniladi. Chunki o'rmon xazinasi daraxtlar bo'lganligi kabi, dehqonning boyligi yer hisoblanadi. Dehqonning yeri qanchalik ko'p va serhosil bo'lsa, unga qanchalik yaxshi ishlov berilsa, undan shunchalik manfaat olishi mumkin. Shu bilan birgalikda dehqonning qanday moddiy sharoitda yashashini ham, aynan yerdan oladigan hosillari hal qiladi. Shuning uchun ham, "Dehqonning xazinasi – yer" maqoli nafaqat Shimoliy Afg'onistonda istiqomat qiladigan o'zbek dehqonlari, balki yer yuzida yashovchi o'zbek dehqonlari nutqida keng qo'llanilishini bevosita kuzatishimiz mumkin.

Arpacha insofing bo'lsa,

Tariqcha g'am ko'rmassan.

Ya'ni inson, qanchalik insofli kishi bo'lsa, shunchalik dard-u g'ami oz bo'ladi degan ma'noda qo'llaniladi. Bir inson qanchalik insofsiz bo'lsa, u insonning shunchalik dushmani ko'p bo'ladi va xalq ko'zida shunchalik yomon ko'rinadi. Arpa mahsulotining doni juda kichkina, tariq esa undan-da kichikroq ko'rinishda bo'ladi. Shuning uchun ham dono xalqimiz agar insofli inson bo'lsang shu kichkina tariqcha ham g'am ko'rmaysan degan ma'noda ushbu maqolni qo'llaydilar. Ushbu maqol hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatilishini bevosita kuzatishimiz mumkin.

Arpa ekkan, arpa o'rar, bug'doy ekkan, bug'doy.

Bu maqol Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqida ko'p uchraydi. Birovga yaxshilik qilsang, yaxshilik olasan, yomonlik qilsang, yomonlik ko'rsan degan ma'noda qo'llanadi. Ya'ni boshqalarga yomonlik qilmaslikni targ'ib etuvchi maqollardan biri hisoblanadi. Insonlarga yaxshilik qilish kerakligi, agar yomonlik qiladigan bo'lsa, albatta qilgan amaliga yarasha javob olishini eslatib turishda yordam beradi. Shuning uchun ham, ushbu maqol faqatgina Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbek dehqonlari nutqida emas, balki, yer yuzida yashovchi ko'plab o'zbeklar nutqida faol ishlatiladi.

Bir yil tut ekkan kishi

Qirq yil gavhar terar.

Chunki tut ekish va tut daraxtini tarbiyalash qadimgi zamonlardan boshlab, savobli bir ishga aylangani uchun, boshqa daraxtlarga nisbatan, uzoq masofalarda bo'lgan, qishloq, tuman va shaharlar cho'zig'idagi yo'llarda ko'proq ekilgan. Tut daraxti va uning mevasi yeyish uchun qulay bo'lganligi bois, umuman musofir yo'ldan o'tguvchilar, mol-hol, boshqa qush-u qarg'alar hamda qurt-qumursqalar uchun ta'minlash manbaiga aylanib barcha, maxluqlar uning mevasidan bevosita foydalanganlar, shuning uchun ham tut daraxt ekish katta bir an'anaga aylanib qolgan.

Qolaversa hech bir daraxtning yog'ochi tutga qadar hayot uskunalarini yasash uchun foydali bo'lmagan, misol tarzida, tut daraxt kundasidan kurak, omoch hamda zig'ir, kunjut, chigit kabi o'simliklarni moyini chiqaradigan maxsus uskunolari va eshiklar yasash maqsadida keng qo'llanilib kelgan. Tut daraxtining barglaridan asosan pilla qurtini tarbiyalash va oziqlantirish maqsadida ish olinib, shu bois ipak sanoatining rivojlanish va taraqqiyoti uchun zamin yaratib beradi. Qolaversa tut mevasidan shinni, talqon va tut mayizi tayyorlanib qish ozuqasi sifatida undan foydalaniladi. Ushbu maqol hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'onistonda istiqomat qiluvchi o'zbeklar nutqida kuzatishimiz mumkin.

Bug'doy olaman desang, qovun polga ek.

Qovun ekilgan yer yumshoq yer bo'ladi, chunki mazkur yer qovun ekilmasdan oldin sug'orilib keyin ag'dariladi, ag'darilgandan keyin qovun urug'i ekilib unga suv qo'yilmaydi. Qovun pishib olinganidan keyin shunday yumshoqligicha qoladi, keyingi yil unga suv qo'yiladi, yer yumshoq bo'lganligi uchun, suv namligi yerning ancha qismigacha o'z ta'sirini ko'rsatadi va bu yerga ekilgan bug'doy ildizlarining yaxshi rivojlanishga qulay fursat paydo bo'ladi, ildizi yaxshi rivojlanganidan keyin, tabiiyki bug'doyning doni hamda poyasi katta va to'q bo'ladi. Mazkur maqol hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbek dehqonlari nutqida uchraydi.

Dehqon bo'lsang, roshida bo'l,

Cho'pon bo'lsang – qoshida.

Rosh – bu ariqning yonbosh tomonlari. Dehqonchilikning bir qismini suv tashkil qiladi, ya'ni dehqonchilik mahsulotlarining ko'p qismini suvsiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi, shuning uchun dehqonlar kuz, qish va bahor fasllarida o'zlarining ko'p vaqtlarini, ariq qazish, pal tuzish kabilarga ajratadilar.

Cho'pon, doimo mollarning yonida bo'lib, ularning yem-xashaklaridan xabardor bo'lib, bo'rilardan asraydi. Hattoki uxlash vaqtida ham mollarning yonida uxlab, ulardan bittasini oyog'iga bog'lab qo'yadi, agar mol galasi bir tarafga ketishsalar, bog'langan qo'y ham ketishga harakat qiladi, natijada cho'pon uyg'onib, ularni yo'ldan qaytaradi. Ushbu maqol hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbek dehqonlari nutqida qo'llaniladi.

Dehqon bo'lsang, shudgor qil,

Mulla bo'lsang, takror qil.

Shudgor – ag'darmoq. Yerni ag'darmasdan turib, yerning qattiqligicha hech narsa ekolmaymiz, eksa-da undan yaxshi hosil ololmaymiz, shunday ekan dehqonchilikning, shudgorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yer ag'darish usullari ham turlicha bo'lgan. Masalan, qadimgi zamonlarda omochdan foydalangan bo'lsalar, hozirgi kunda traktorni qo'llaydilar. Har bir narsani takrorlab tursakkina esimizda qoladi va shu masalaning "mulla" siga aylanamiz. Mazkur maqol hozirgi kunda Shimoliy Afg'onistonda istiqomat qiluvchi o'zbek dehqonlari nutqida faol qo'llaniladi.

Dehqon bo'lsang, qoshida bo'l,

Sipoh bo'lsang – boshida.

Dehqonchilik ishlarining bari amaliy ish bo'lganligi uchun, dehqon doimiy ravishda o'z yerlaridan xabardor bo'lib, ag'dariladigan vaqtda, ag'darib, ekiladigan vaqtda ekib, sug'oriladigan vaqtda sug'orib turishi zarur. Bundan tashqari, yerdan yaxshi hosil olish uchun unga ishlov berish va shunga o'xshagan boshqa ishlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Xalqning kattasi bo'lganidan keyin, o'sha xalqning asrab – avaylash, ularga yo'l – yo'riq ko'rsatib, boshida bo'lishga majbur. Ushbu maqol hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'onistonda istiqomat qiluvchi o'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatiladi.

Dehqon ishlab don sochar

Elga rizq yo'lni ochar.

Bizning asosiy ozuqamizning dehqonchilik mahsulotlari ta'minlab beradi. Dehqonlar issiq – sovuq demasdan ishlab, dehqonchilik mahsulotlarini xalqqa taqdim etadilar va xalq ulardan turlicha usul bilan foydalanadilar. Masalan, bug'doyni nazarda tutadigan bo'lsak, undan kimdir non sifatida, yana kimdir sumalak sifatida... foydalanadilar. Dehqonlarimiz qanchalik yaxshi ishlasalar, shunchalik arzonchilik bo'ladi va xalq juda yaxshi yashaydi.

Dehqonlar, donni yerga sohib, yerga ishlov berib, o'n baravar hosil oladilar, albattaki bu jarayon oson emas, chunki har bir narsadan foyda olmoqchi bo'lsak, birinchidan uni tarbiyalash kerak, uning ehtiyojlarining bartaraf etish shart, shuncha jarayonni bosib o'tgandan keyingina, undan foydalanib, el-u yurtga non sochadi. Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganligi bois, ushu maqol, mazkur hudud vakillari nutqida ko'p ishlatilishini kuzatishimiz mumkin.

Dehqon ekkanini yeydi,

Cho'pon – boqqanini.

Dehqonning vazifasi – ekish, ekilgan ekinlarni o'rib tozalab foydalanishga topshirish. O'zi ekkan mahsulotlari orqali oziqlanib kundalik hayotini kechiradi. Cho'pon esa o'sha o'zi boqayotgan chorvasidan sut-u qatig'i hamda go'shtidan foydalanib hayot kechiradi, lekin, bari bir dehqonchilik mahsulotlariga ehtiyoji bor. "Dehqon ekkanini yeydi, Cho'pon — boqqanini" maqoli hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'oniston hamda O'zbekiston hududlarida istiqomat qiluvchi o'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatiladi.

Dehqonning rizqi yer bilan kuchiga bog'liq.

Xudoyo taolo har bir bandasining rizqini turlicha yo'l bilan beradi. Masalan, cho'pon hayvonlarni boqish bilan dehqonlar esa yerga ishlov berib undan hosil olish bilan o'z rizqini topib yeydi. Dehqonchilikning asosiy talablaridan biri, bu jismonan baquvvat bo'lishdir. Chunki dehqonchilik kasbi boshqa ishlarga qaraganda, og'ir ishlari ko'p kasb hisoblanadi, shunga binoan yaxshi dehqon bo'lish uchun jismonan ham baquvvat bo'lishi kerak. Ushbu maqol hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'onistonda o'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatilishini bevosita kuzatishimiz mumkin.

Dehqonning o'zi kasal bo'lsa ham,

Ho'kizi kasal bo'lmasin.

Ho'kiz qadim zamonlarda, dehqonlarning asosiy ishlarini bajaruvchi hayvon bo'lgan, bunda ko'pincha yer haydash, galagov qilish (dehqonchilik mahsulotlarining poyasini, donidan ajratish) kabi maqsadlarda foydalanganlar. Hozirgi kunda ham chekka qishloqlarda ish oladilar. Dehqonning moddiy ehtiyojlari asosan dehqonchilik orqali bartaraf etiladi. Shuning uchun ham, dehqonning o'zi kasal bo'lsa ham, ho'kizi kasal bo'lmasin deyishadilar, sababiki dehqon kasal bo'lgan taqdirda, uning o'rnida o'g'li yoki qarindoshlari ishlashi mumkin, ammo ho'kizi kasal bo'lgan taqdirda dehqonchilik ishlarining passivlashishiga olib borgan. Mazkur maqol hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'oniston hududida istiqomat qiluvchi o'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatilishini bevosita kuzatishimiz mumkin.

Yer boyligi — el boyligi.

Mazkur maqolni ishlatishdan maqsad shuki, insoniyatning katta ehtiyojlarining dehqonchilik mahsuloti orqali bartaraf etishimiz mumkin. Dehqonchilikni yersiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Ayrim o'simliklarning yerdan ayri holatda ham o'stirishimiz mumkin-ku degan fikr ham paydo bo'lishi mumkin, ammo o'shanda ham, yer mahsuli bo'lmish tuproqdan foydalaniladi. Yer boyligi deganda nafaqat dehqonchilik bilan bog'li narsalar, balkim tabiiy narsalarni ham nazardan chetda qoldirolmaymiz. Masalan, yer tagidagi gaz, qimmat baho toshlar, oltin, kumush, temir kabilarni ham aytishimiz mumkin. Yeri boy bo'lgan insonlar agar o'z boyliklaridan unumli foydalana olsalar, albatta, boy xalq bo'lib yashaydilar. Ushbu maqol Shimoliy Afg'oniston o'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatiladi.

Yer – don, dehqon – xazinabon.

Haqiqatdan ham shunday, agar dehqon qanchalik ko'p zahmat cheksa, yerga qanchalik yaxshi ishlov bersa, shunchalik xazinasi to'ladi, aksincha bo'lgan taqdirda xalqning qiynalishi va dehqonchilik mahsulotlarining narxi oshishiga sabab bo'ladi. Ya'ni dehqon xazinabon bo'lib o'z xazinasini boy etsa, xalq shunchalik osoyishta hayot kechiradi. Ushbu maqol hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbek dehqonlari nutqida ishlatiladi

Yer silaganni, el siylar.

Yer silaydigan kishilarga nisbatan dehqonlar deyiladi. Dehqon qanchalik yer silasa (yerga ishlov bersa), yerdan shunga yarasha hosil oladi, yerdan qancha yaxshi hosil olsa, xalq farovonlikda yashadi, bunday yashaganidan keyin, tabiiyki shunday farovonlikka sababchi bo'lgan dehqonlarga rahmat aytishadi. "Yer silaganni, el siylar" maqoli dehqonchilikning asosiy mohiyatini ochib berganligi sababli, hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'onistonda istiqomat qiluvchi o'zbek dehqonlari nutqida faol qo'llanilishi bevosita kuzatishimiz mumkin.

Yer-suv – bitmas kon.

Dunyoning to'rtidan uch qismini suv tashkil qiladi. Yer yuzidagi barcha jonli mavjudlarning suvsiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Xuddi shunday yersiz ham. Insoniyat ehtiyojlarini ta'minlovchi asosiy sohalardan biri bo'lmish dehqonchilikni ham, suv va yersiz tasavvur qilish qiyin, chunki barcha dehqonchilik mahsulotlarining suvga ehtiyoji katta, shu bilan birgalikda yer ham dehqonchilik uchun birinchi o'rinda turadi, sababi, dehqonchilik mahsulotlarini ekish uchun yer kerak. Demak yer yuzida yashash uchun, albatta ikkalasi ham bo'lishi shart, chunki bularsiz, yer yuzida yashashning iloji yo'q. Mazkur maqol hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'onistonda istiqomat qiluvchi o'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatilishini kuzatishimiz mumkin.

Yer charchasa, hosil bermas.

Yerga yaxshi ishlov berilmaganligi, o'z vaqtida sug'orilmaslik natijasida, yer charchashi yuz beradi. Yer charchashi bergan hosiliga qarab bilishimiz mumkin. Agar yaxshi hosil bersa, demak mazkur yerga yaxshi qarashilgan, aksincha bo'lgan taqdirda, unga nimadir yetishmagan va yerni charchashga olib kelgan. Ushbu maqol ayni paytda ham Shimoliy Afg'onistonda istiqomat qiluvchi o'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatiladi.

Bog' bo'lsa, bog'bon topilur

Mazkur maqol asosan ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ya'ni bosh omon bo'lsa do'ppi topilar maqoliga ma'nodosh holda qo'llaniladi. Ushbu maqol dehqonchilikka oid leksemadan tarkib topgan, O'zbek xalqining ma'naviy boyligi hisoblanadi. Bog' bo'lsa, bog'bon topilur maqolini hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'oniston hamda O'zbekistonda istiqomat qiluvchi O'zbek dehqonlari nutqida faol ishlatilishini bevosita kuzatishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki mazkur maqolada xalq og'zaki ijodiyotida, dehqonchilik ilmiga oid qadimgi rivoyatlarimizda saqlanib, bizgacha yetib kelgan dehqonchilik haqidagi ajdodlarimizdan meros bo'lib o'tib kelayotgan ba'zi amallarni jamlab, o'tgan mirishkor bobo dehqonlarimizning hayotiy tajribalarini o'rganib chiqdik.

References:

1. Musayev N. O'rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlar tarixidan (Tosh davri oxirlaridan – XX asr boshlariga qadar). – Toshkent: Fan. 2005.
2. И.Хужамуродов. "Авесто"да дехкончилик маданияти. -Тошкент: "Навруз", 2017.

3. S.Ibrohimov Paxtachilikka doir qisqacha izohli lug'at, 1935; Qosimov A., Nabiyev M. Botanikadan qisqacha izohli lug'at. –Toshkent: O'qituvchi, 1990.
4. Вопросы текста в лингвистике, филологических науках. Нурфайзиева Дилшода Омоновна. 2019. Maqola (Xorijiy jurnal). New Document(3).pdf.
5. Жабборов Х. Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши. Насаф, 2016.
6. "Problems of creating nation corpus of the uzbek language (level of synonyms)" Eshmuminov Asqar Internationnal Scientific Jurnal Theoretical & Applied Science. Volmue: 73, Issue: 05 - philadelphia, USA, 2019. P. 47-50
7. The interpredation of agricultural words in "Baburnama" Amini Aziz Ahmad. 2021, "2ND GLOBAL SYMPOSIUM ON HUMMANITY AND SCIENTIFIC ADVANCEMENTS" (konferensiya) Florida USA Conference Proceedings 2021.pdf, <http://www.conferencepublication.com>.
8. Ahmad, Amini Aziz. "SHIMOLIY AFGONISTON OZBEKLARI NUTQIDA DEHQONCHILIK ASBOBLARI NOMLARI VA ULARNING LISONIY TALQINI." Science and innovation 1.B2 (2022): 485-490.
9. Amini, A. "SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEKLARI NUTQIDAGI DEHQONCHILIKKA OID HARAKAT FELLARINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR." FAN, TA'LIM VA AMALIYATNING INTEGRASI. ILMIY-METODIK JURNALI 4.1 (2023): 9-15.